


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO‘NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

“Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 607-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohasini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK INVESTITSIYA XARAJATLARI HISOBINI JORIY ETISH TARTIBI

Mirzayev Komiljon Abdullajonovich

TDIU mustaqil izlanuvchi

e-mail: komiljon_mirzaev@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-9908-5123>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik investitsiyalarni hisobga olish tizimini takomillashtirish masalasi o‘rganilgan. Amaldagi buxgalteriya schyotlar tizimida ekologik xarajatlar umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida aks ettirilishi ularni nazorat qilish va tahlil qilish imkoniyatlarini cheklashi aniqlangan. Shu munosabat bilan, 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarni moliyalashtirish” schyoti va unga bog‘liq 8541, 8542, 8543 subhisoblarni joriy etish taklif etildi. Tadqiqot davomida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan milliy hisob siyosati qiyoslab chiqildi hamda amaliy misollar asosida yangi buxgalteriya modelining samaradorligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: ekologik investitsiyalar, buxgalteriya hisobi, qurilish sanoati, subhisoblar, schyotlar tizimi, IFRS, ekologik xarajatlar.

Аннотация: В статье исследуется вопрос совершенствования системы бухгалтерского учета экологических инвестиционных расходов на предприятиях промышленности строительных материалов. Установлено, что существующая система счетов бухгалтерского учета не позволяет вести отдельный учет таких затрат, что затрудняет их анализ и контроль. В этой связи предлагается введение нового счета 8540–«Финансирование экологических инвестиционных расходов» и подчиненных субсчетов 8541, 8542 и 8543. В ходе исследования проведено сравнение с международными стандартами финансовой отчетности (IFRS) и обоснована эффективность предлагаемой модели на примере действующих предприятий.

Ключевые слова: экологические инвестиции, бухгалтерский учет, строительная промышленность, субсчета, система счетов, IFRS, экологические расходы.

Abstract: This article explores the improvement of the accounting system for environmental investment expenses at enterprises in the construction materials industry. The study identifies that under the current national chart of accounts, such expenses are recorded under general production costs, limiting transparency and analytical control. Therefore, the paper proposes the introduction of a new account 8540 – "Financing of Environmental Investment Expenditures" and its sub-accounts 8541, 8542, and 8543. Comparative analysis with IFRS standards and practical implementation based on selected industrial companies were conducted to justify the effectiveness of the proposed model.

Keywords: environmental investments, accounting, construction industry, sub-accounts, chart of accounts, IFRS, environmental costs.

Kirish

Hozirgi davrda ekologik muammolar sanoat rivojlanishining ajralmas omiliga aylanib bormoqda. Xususan, qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan atrof-muhitga salbiy ta’sirlar (changlanish, gaz chiqindilari, chiqindi suvlar, radioaktiv fon) ekologik xavfsizlik va barqarorlik talablariga nisbatan keskin yondashuvni talab etmoqda. Shu munosabat bilan korxonalarda amalga oshiriladigan ekologik investitsiyalarni alohida buxgalteriya hisobi orqali yuritish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Yashil makon” umummilliy harakati, “Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” (2023–2030 yillar) va Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari doirasida sanoat korxonalarining ekologik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, investitsiyalarning samaradorligini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish bo‘yicha hisob va audit tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Amaldagi milliy buxgalteriya standartlarida ekologik xarajatlar odatda umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida aks ettiriladi. Bu holat korxonaning atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan xarajatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va investitsion samaradorlikni baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish hajmi katta, texnologik jarayonlari energiya va resurs talabchan bo‘lgan qurilish materiallari sanoati uchun ekologik investitsiyalarni alohida hisobga olish, ularning harakatini subhisoblar kesimida kuzatish zaruriyati sezilarli darajada oshgan.

Xalqaro amaliyotda ekologik xarajatlar va majburiyatlar "provisions" va "contingent liabilities" sifatida moliyaviy hisobotda aks ettiriladi (IAS 37, IFRS 6). Mazkur maqola doirasida ushbu yondashuvlar asosida O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatida ekologik xarajatlar va investitsiyalarni hisobga olish bo‘yicha yangi hisob schyoti – 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” va unga bog‘liq 8541, 8542, 8543 subhisoblarni joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, buxgalteriya hisobining takomillashgan modeli orqali korxonalar ekologik investitsiyalarning manbai, yo‘nalishi va samarasini moliyaviy jihatdan aniq tahlil qila oladi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning ijtimoiy mas’uliyat darajasini oshiradi, davlat monitoringi va xalqaro audit talablariga javob beradigan shaffof moliyaviy axborot tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha ilmiy qarashlar so‘nggi yillarda alohida e’tibor markaziga aylandi. Atrof-muhitga ta’sir

ko‘rsatadigan ishlab chiqarish tarmoqlarida, xususan, sement va g‘isht ishlab chiqaruvchi korxonalarda ekologik xavflarni kamaytirish uchun moliyaviy va buxgalteriya yondashuvlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Neyshstadt M.L. o‘z tadqiqotida “Ekologik xarajatlar sanoat ishlab chiqarishida muqarrar xarajatlar turiga kiradi va ularni alohida hisobot birliklarida aks ettirmaslik moliyaviy axborotlarning ishonchliligini kamaytiradi” deb qayd etadi. Uning fikricha, bu kabi xarajatlar smetaviy asosda rejalashtirilib, alohida schyotlarda hisobga olinishi zarur [1].

Shibileva O.V. esa sanoat korxonalarida ekologik investitsiyalarni identifikatsiya qilish mezonlarini ishlab chiqib, ularni “faqat moliyaviy jihatdan emas, balki resurs sarfi va ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan baholash” zarurligini ta’kidlaydi [2].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan, IAS 37 – “Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets” ekologik majburiyatlarni hisobga olishda aniqlik va ehtimollik mezonlariga asoslanadi. Ushbu standartlarga ko‘ra, majburiyatni hisobga olish uchun u:

- hujjatlangan bo‘lishi,
- miqdori baholanishi mumkin bo‘lishi, va
- ehtimoliy to‘lovga olib kelishi lozim (IFRS, 2021).

Saenko L.V. esa quyidagicha yozadi: “Ekologik majburiyatlar faqat real xarajatlar bilan cheklanmaydi, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan harajatlarni ham o‘z ichiga oladi, bu esa ularni moliyaviy hisobotda tan olish zaruratini tug‘diradi” [4].

Omanov S.Q. qurilish korxonalarida xarajatlarni tasniflashda ekologik investitsiyalarni alohida modda sifatida ajratib ko‘rsatish zarurligini ta’kidlaydi:

“Ekologik infratuzilma, chiqindi boshqaruvi, atmosferani muhofaza qilishga yo‘naltirilgan xarajatlar buxgalteriya hisobining alohida bo‘limida yuritilishi shart” [5].

Shuningdek, Tulovov E.T. o‘z tadqiqotida qurilish-pudrat korxonalarida ekologik faoliyat uchun “xarajatlarning nazorat qilinishi” va “maxsus subhisoblar orqali yuritilishi” lozimligini asoslab bergan [6].

Rustamov B.K. o‘z maqolalarida ekologik investitsiyalarni milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim elementi sifatida ko‘rsatib, shunday deydi: "Ekologik investitsiyalar sanoat barqarorligini ta'minlovchi asosiy infratuzilma hisoblanadi va ularni alohida buxgalteriya schyotlarida aks ettirish zaruriyati ortib bormoqda"[7].

Shuningdek, Islomov A.S. o‘z ilmiy ishida quyidagilarni qayd etgan: "Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda ekologik xarajatlar va investitsiyalarni aniqlik bilan moliyaviy hisobotlarda aks ettirish strategik ahamiyat kasb etadi"[8].

Xalqaro tajriba esa ushbu tendensiyani tasdiqlaydi. Rahman M.K. va boshqalar Bangladesh sement sanoati misolida ekologik xarajatlar aniq hisobga olinmagani

sababli korxonalarining ESG reytingi past bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu, moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi [10].

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik investitsiyalarni aniq moliyaviy schyotlar orqali hisobga olish, ularning tahliliy kuzatuv va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash uchun sintetik va analitik hisob tizimini yaratish zarur. Bunday yondashuv Qurilish materiallari sanoati korxonalarida uchun ayniqsa muhim, chunki ularning faoliyati ekologik yuklamasi baland ishlab chiqarish texnologiyalariga tayanadi.

Ushbu tadqiqotda qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik investitsiya xarajatlarini alohida hisobga olish uchun buxgalteriya tizimini takomillashtirishga doir metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Avvalo, mavjud hisob siyosati, buxgalteriya schyotlar rejasi va amaldagi hisob amaliyoti tahlil qilindi. Amaldagi 0100–“Asosiy vositalar” hamda 3200–“Joriy ishlab chiqarish xarajatlari” schyotlari orqali ekologik xarajatlar umumlashtirilgan tarzda yuritilishi, ularning tahliliy imkoniyatlari cheklanganligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usulidan foydalangan holda milliy hisob siyosati va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS 16, IAS 37, IFRS 6) o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Ularning asosida ekologik investitsiyalarni identifikatsiyalash, baholash va hisobga olish mezonlari ajratib ko‘rsatildi. Natijada, 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” schyotini va unga bog‘liq 8541, 8542, 8543 subhisoblarni shakllantirish uchun ilmiy asoslar ishlab chiqildi.

Model yondashuvi orqali mazkur schyotlar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari, provodkalar ketma-ketligi va har bir subhisob doirasida xarajatlarning tasnifi ishlab chiqildi. Shuningdek, amaliy tahlil sifatida “Kizilkumsement”, “Ahanganacement” va “Kuvasoyssement” korxonalarining 2020–2023 yillardagi moliyaviy hisobotlari o‘rganilib, ekologik investitsiyalarning hisobga olinishi darajasi baholandi.

Tadqiqotda statistik tahlil, hujjatlar tahlili va sxematik model yaratish vositalaridan foydalanildi. Hisob tizimining taklif etilayotgan yangi strukturasi orqali xarajatlarni manba va yo‘nalish bo‘yicha to‘liq qamrab olish, audit uchun zarur tahliliy axborotni shakllantirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik investitsiya xarajatlari amalda umumiy ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shib yuborilmoqda va buxgalteriya hisobida alohida ko‘rinishda aks ettirilmayapti. Bu esa ekologik faoliyatni moliyaviy tahlil qilish, davlatga taqdim etiladigan hisobotlarni tayyorlash, ichki auditni amalga oshirish va xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq ESG ko‘rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, ekologik xarajatlarni maxsus hisob schyotlari orqali yuritish zarurati asoslab berildi.

Tadqiqot davomida 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” schyotini va unga bog‘liq 8541, 8542, 8543 subhisoblarni joriy etish konsepsiyasi

ishlab chiqildi. Har bir subhisob orqali sanoatning muayyan texnologik bosqichlariga mos ravishda ekologik xarajatlarni tasniflash va ularni alohida hisobda yuritish imkoniyati yaratiladi. Bu hisob tizimi asosida korxonalar ekologik yo‘nalishdagi investitsiyalarning manbasini aniqlaydi, sarflar ustidan nazoratni kuchaytiradi va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Quyidagi jadval taklif etilayotgan subhisoblar tizimini va ularning mazmun-mohiyatini ko‘rsatadi:

1-jadval.

8540 schyoti asosida ekologik investitsiyalarni hisobga olish uchun subhisoblar tizimi

Subhisob raqami	Subhisob nomi	Hisobga olinadigan xarajatlar turi
8541	Tog‘-kon sanoati xarajatlarini moliyalashtirish	Ohaktosh, slanets, gips va boshqa xomashyolarni qazib olishda ekologik himoya uskunalari xarajatlari
8542	Maydalash va saralash majmuasi xarajatlarini moliyalashtirish	Changni ushlovchi filtrlash tizimlari, chiqindini saralash va utilizatsiya uskunalari
8543	Sement ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarini moliyalashtirish	Gaz tozalash, issiqlikni qayta ishlovchi texnologiyalar, ekologik pech modernizatsiyasi

Mazkur tizim asosida buxgalteriya yozuvlari quyidagi tarzda shakllantiriladi: ekologik texnologiyalarga yo‘naltirilgan sarmoyalar 8540 schyoti orqali sintetik tarzda umumlashtiriladi, har bir bosqich bo‘yicha esa 8541–8543 subhisoblarda analitik tarzda yuritiladi. Bu yondashuv investitsiyalarning texnologik yo‘nalishini, manba va natijasini aniqlashga xizmat qiladi.

Korxonalar moliyaviy hisobotlarida bunday xarajatlarni aniq aks ettirish orqali ekologik faoliyatni moliyaviy rejalashtirish va auditlash sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tariladi. Shu bilan birga, xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq hisobotlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Munozara

Qurilish materiallari sanoatida ekologik investitsiyalarni buxgalteriya hisobida alohida aks ettirish zarurati amaliyotda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Mazkur soha korxonalarini faoliyati yuqori energiya sarfi, atmosfera va suv havzalariga chiqindilar ajratilishi, hamda tabiiy resurslardan katta hajmda foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonlarini aniq va shaffof tarzda aks ettiradigan hisob tizimining mavjud emasligi strategik moliyaviy boshqaruvda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaldagi milliy buxgalteriya standartlari va schyotlar rejasi ekologik investitsiyalarning tahliliy boshqaruviga to‘liq xizmat qila olmayapti. 0100 – “Asosiy vositalar” schyotida bunday xarajatlar umumlashtirilgan holda aks ettirilishi ularni monitoring qilish va rentabellikka

ta’sirini baholash imkonini sezilarli darajada cheklaydi. Shu bois, 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” schyoti va uning 8541, 8542, 8543 subhisoblarini joriy etish orqali xarajatlarning texnologik jarayonlar bo‘yicha tasnifini va moliyaviy nazoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro tajriba ham ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, IAS 16 (Asosiy vositalar) va IFRS 6 (Mineral resurslarni tadqiq qilish va baholash) standartlari ekologik yo‘nalishdagi sarmoyalarni maxsus uskunalar va texnologiyalar tarkibida asosiy aktiv sifatida hisobga olishni tavsiya etadi. IAS 37 esa ehtimoliy majburiyatlarni hisobotlarda “provisions” sifatida aks ettirishni talab qiladi. Bu standartlar asosida yuritiladigan hisob tizimi orqali ekologik investitsiyalar hajmi, ularning manbasi, muddati va maqsadi aniqlik bilan ko‘rsatiladi.

Mahalliy korxonalar tajribasida, jumladan “Kizilkumsement”, “Ahangarancement” va “Kuvasoyssement” moliyaviy hisobotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ekologik yo‘nalishdagi investitsiyalar odatda umumiy xarajatlar tarkibida aks ettirilmoqda. Bunday yondashuv ekologik tahlil, ESG reytingni shakllantirish va audit jarayonida ma’lumotlarni ajratib olishni qiyinlashtiradi. Taklif etilgan yangi schyotlar tizimi esa ushbu kamchiliklarning bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Ushbu tizim orqali ishlab chiqilgan hisob modeli quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

2-jadval.

Yangi hisob tizimining amaliy afzalliklari

Yo‘nalish	Takomillashtirish orqali erishiladigan afzalliklar
Buxgalteriya hisobining aniqligi	Ekologik xarajatlar texnologik yo‘nalishlar kesimida aniq aks ettiriladi
Moliyaviy tahlil samaradorligi	Investitsiyalarning ta’siri va rentabelligi tahlil qilish imkoniyati yaratiladi
Audit jarayonining shaffofligi	Subhisoblar orqali dalillar asosida auditorlik tekshiruvlar o‘tkazish osonlashadi
ESG hisobotlari	Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari uchun zarur ma’lumotlar tizimli shakllanadi
Davlat monitoringi	Ekologik xarajatlar ustidan nazorat yuritish imkoniyati kuchayadi

8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” schyoti va unga bog‘liq subhisoblar orqali yuritiladigan buxgalteriya hisobi ekologik faoliyatni iqtisodiy baholashda muhim moliyaviy instrumentga aylanadi. Bu yondashuv amaliyotda moliyaviy intizomni mustahkamlabgina qolmay, balki xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos, zamonaviy axborot tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik investitsiyalarni alohida buxgalteriya hisobida yuritish

zarurati bevosita ishlab chiqarishning ekologik yuklamasi yuqoriligi, xalqaro standartlarga muvofiq hisobot shakllarining joriy etilishi va ESG ko‘rsatkichlarining dolzarbligi bilan bog‘liqdir. Amaldagi schyotlar tizimida bunday xarajatlar umumlashtirilgan tarzda aks ettirilgani sababli, ularni tahlil qilish, baholash va auditdan samarali foydalanish imkoniyati cheklangan. Shu sababli, maqolada taklif etilgan 8540–“Ekologik investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish” schyoti va unga bog‘liq 8541, 8542, 8543 subhisoblar ekologik investitsiyalarni texnologik bosqichlar bo‘yicha ajratib ko‘rsatish, ularning samaradorligini monitoring qilish va moliyaviy hisobda shaffoflikni ta‘minlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga yaqinlashish, audit dalillarini aniq shakllantirish, ekologik xavflar bo‘yicha ehtimoliy majburiyatlarni e‘tirof etish va korxonalar boshqaruv qarorlarida ekologik xarajatlarning real ta‘sirini hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan model sanoat korxonalarining ekologik mas‘uliyatini oshiradi va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нейштадт М.Л. Экономика природопользования. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 448 с.
2. Шибилева О.В. Учет и анализ природоохранных затрат в промышленности: монография. – Иркутск: ИГУ, 2010. – 212 с.
3. Рубанова Н.Н. Экологический учет на предприятиях промышленности строительных материалов. – СПб.: Изд-во Питер, 2005. – 187 с.
4. Саенко Л.В. Экологическая отчетность: теория и практика / Л.В. Саенко // Бухгалтерский учет и аудит. – 2005. – №4. – С. 23–28.
5. Omanov S.Q. Qurilish sanoatida ishlab chiqarish xarajatlari va ekologik investitsiyalarni hisobga olishning nazariy va amaliy asoslari: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2024. – 153 b.
6. Tulovov E.T. Qurilish-pudrat tashkilotlarida audit tizimini takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: TMI, 2023. – 145 b.
7. Рустамов Б.К. Ўзбекистонда sanoat ekologik investitsiyalari va ularning moliyaviy boshqaruvi: ilmiy maqola. // Iqtisodiyet va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2022. – №3. – Б. 75–81.
8. Исломов А.С. Яшил иқтисодиётни шакллантиришда экологик харажатларни мoliyaviy ҳисобда акс эттиришнинг аҳамияти. // Молия ва Бухгалтерия. – 2023. – №5. – Б. 52–57.
9. International Financial Reporting Standards (IFRS). IAS 16 – Property, Plant and Equipment. London: IFRS Foundation, 2021. – 38 p.
10. International Financial Reporting Standards (IFRS). IAS 37 – Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. London: IFRS Foundation, 2021. – 25 p.
11. International Financial Reporting Standards (IFRS). IFRS 6 – Exploration for and Evaluation of Mineral Resources. London: IFRS Foundation, 2021. – 16 p.